
AHOLI DIQQATIGA



Farg'ona viloyati hokimi – fuqaro muhofazasi boshlig'i X.X.Bozarovning 2023 yil 5 dekabr kungi “Farg'ona viloyati hududida sovuq ob-havo sharoitida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda kuch va vositalarning shayligini ta'minlash to'g'risida”gi buyrug'iga asosan mamlakatimizga bosqichma-bosqich sovuq havo massalarining kirib kelishi, 9 dekabr dan respublikamizning sharqiy viloyatlarida yog'ingarchiliklar (yomg'ir,qor) kuzatilishi, 12-14 dekabr kunlari havo harorati -10-13 daraja sovuq bo'lishi kutilayotganligi munosabati bilan viloyatdagi barcha boshqarma va tashkilotlar, shahar va tumanlar hokimliklari tomonidan sovuq ob-havo sharoitining salbiy oqibatlarini yumshatishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shuni inobatga olib, kutilayotgan ob-havo o'zgarishiga tayyorgarlik ko'rishingizni, elektr va gaz jihozlaridan foydalanishda xavfsizlik qoidalariga qat'iy rioya qilishingizni so'raymiz.

Bu borada Oltiariq tumanida yuzaga kelgan mavjud muammolarni hal etish uchun tuman elektr tarmoqlari korxonasiga (734320534, 985000822 telefon raqami), “Oltiariqtumangaz” korxonasiga (734320792 telefon raqami), tuman “Suvta'minot” korxonasiga (734320965 telefon raqami), tuman Favqulodda vaziyatlar bo'limi (101, 734322001telefon raqami), Oltiariq tuman hokimligi kuz-qish mavsumini betalofat o'tkazish shtabi (734320023 telefon raqami)ga murojaat qilishingiz mumkin.

Oltiariq tuman hokimligi axborot xizmati.
2023-12-09 10:05:36